

Loyiha raqami

55022

Qaysi bosqichdaligi

Mablag' ajratilmoqda

Mamlakat

Mintaqaviy

Faoliyat sohasi

Ishlab chiqarish va xizmatlar

Bildirishnoma turi

Xususiy

Ekologik toifasi

B

Tasdiqlangan sana

2025-yil 21-yanvar

Oshkor etilgan sana

2025-yil 10-mart

Axborotdan foydalanish siyosatining III bo'limi 2.6-bandiga muvofiq, ushbu Loyiha to'g'risidagi qisqacha ma'lumot (PSD)ni oshkor etish Axborotdan foydalanish bo'yicha Direktivaning 1.4.4-bandiga asosan kechiktirilgan.

Axborotdan foydalanish to'g'risidagi yo'riqnomaning 1.4.2 (iii) bo'limiga muvofiq: "Bank rahbariyati tomonidan ma'qullangan, Direktorlar kengashi ma'qullash vakolatini bergan loyihalar uchun, YTTBni ta'sis etish to'g'risidagi Bitimning 13 (iii) - moddasiga muvofiq, e'tirozsiz tegishli xabarnoma muddati boshida Bankka a'zo mamlakatga PSD ochib beriladi."

[Mazkur hujjatni rus tilida yuklab oling.](#)

[Mazkur hujjatni ukrain tilida yuklab oling.](#)

Loyiha mazmuni

Investitsiyalar Guruhga quyidagilar uchun imkon beradi: (i) O'zbekistonda ishlab chiqarish va saqlash quvvatlarini, jumladan yashil investitsiyalarni kengaytirish; (ii) Ukrainada kapital xarajatlar (capex) loyihalarini amalga oshirish hamda energiya samaradorligini oshirish; (iii) samaradorlikni, shuningdek hisob va hisobot standartlarini yaxshilash maqsadida Guruh darajasida yangi dasturiy ta'minotni joriy etish.

Loyiha maqsadi

Loyiha doirasida Guruhning xorijdagi faoliyatini rivojlantirishga, energiya samaradorligini oshirishga hamda turli joylashuvlar bo'yicha operatsiyalar va buxgalteriya jarayonlarini bixillashtirish maqsadida axborot texnologiyalari (IT) tizimlarini modernizatsiya qilishga sarmoya kiritadi. Loyiha 22 foiz Yashil Iqtisodiyotga O'tish (GET) toifasiga kiradi.

O'tish davri ta'siri

ETI bahosi: 70

Barqarorlik va turmush darajasi doirasida (Resilience and Livelihood Framework – RLF) ushbu bitim urush ta'siriga uchragan, YTTBning mavjud mijozi bo'lgan Ukraina farmatsevtika ishlab chiqaruvchisining ichki va xalqaro faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Loyiha Ukrainadagi mijoz faoliyatini mustahkamlash bilan birga, Guruhning O'zbekiston va Latviyadagi operatsiyalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Ukrainadan tashqaridagi sho'ba korxonalarini moliyalashtirishni ta'minlaydi. Moliyalashtirish va uning maqsadlari RLFga muvofiq ravishda Ukraina bilan bog'liq tegishli o'tish davri ta'siri narijalari bilan mos.

Inklyuzivlik tamoyili: Ukrainadagi davom etayotgan urush sharoitida yuzaga kelgan ishchi kuchi bilan bog'liq muammolar fonida, mijoz Ukrainada yoshlar uchun bozor talablariga mos kasbiy tayyorgarlik va o'qitish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yashil tamoyili: loyiha Ukrainada energiya samaradorligi choralarini, Latviyada yashil bino sertifikatlashini hamda O'zbekistondagi mavjud obyektlarda energiya samaradorligi va energiya tejash choralarini joriy etilishini moliyalashtiradi. Ushbu choralar Guruh faoliyatini mustahkamlashi, operatsion xatarlarni Ukrainadan tashqariga diversifikatsiya qilishi va yakuniy natijada Ukrainada farmatsevtika mahsulotlarining barqaror ta'minotini ta'minlashga hissa qo'shishi kutilmoqda.

Mijoz haqida ma'lumot

EMTEKO HOLDING SIA

SIA Emteko Holding — Yuria Pharm Group (Ukraina farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchisi)ning xolding kompaniyasidir.

YTTB moliyaviy xulosasi

15 000 000 yevro

YTTB 2025–2027-yillarga mo'ljallangan, taxminan 32 million yevro miqdoridagi Yuria Group investitsiya dasturini O'zbekiston, Ukraina va Latviyada moliyalashtiradi.

Loyihaning umumiy qiymati

32 350 000 yevro

15 million yevrogacha bo'lgan kredit yashil loyihalar va boshqa kapital xarajatlarga yo'naltiriladi hamda 13 million yevro majburiyatlangan va 2 million yevro majburiyatlanmagan transhlarga bo'linadi. Har bir transhning muddati 6 yilni tashkil etadi.

Mazkur bitim YTTB tomonidan boshqariladigan imtiyozli moliyalashtirishni o'z ichiga oladi hamda va Ukraina transhining bir qismi Ukraina Investitsiya Doirasi doirasida 27 foizlik sof kafolat bilan qoplangan.

Qo'shimchalar

Loyiha quyidagi yo'nalishlar bo'yicha qo'shimchalikni ta'minlaydi: (i) moliyalashtirish tuzilmasi; (ii) standartlarni belgilash — loyihalar va mijozga yuqori standartlarga erishishda, jumladan mijoz salohiyatini mustahkamlashda ko'maklashish.

Ekologik va ijtimoiy xulosa

Loyiha YTTBning 2019-yilgi Ekologik va Ijtimoiy Siyosatiga muvofiq B toifasiga tasniflangan.

Ekologik va ijtimoiy tekshiruv (ESDD) Bankning Atrof-muhit va Barqarorlik departamenti tomonidan mavjud barcha axborotlarni ko'rib chiqish, korporativ boshqaruv tizimlarini yangilash hamda Guruh vakillari bilan suhbatlar asosida amalga oshirilgan.

Guruh YTTBning amaldagi mijozi bo'lib, Bank talablarini qoniqarli darajada bajarmoqda. Qo'shimcha tahlil Guruhda Yaxshi Ishlab Chiqarish Amaliyoti (GMP) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va barcha operatsiyalar bo'ylab joriy etilgan integratsiyalashgan atrof-muhit, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik (EHS) boshqaruv tizimlari mavjudligini ko'rsatdi.

Muvofiqlashtirish, nazorat va monitoring funksiyalari ishlab chiqarish liniyalari va operatsion faoliyat bo'yicha asosiy EHS masalalarini izchil boshqarishni ta'minlashga qaratilgan. Yuria faol farmatsevtik ingredientlar (API) ishlab chiqarish bilan shug'ullanmaydi, balki asosiy formulatsiya jarayonlarini amalga oshiradi. Shuningdek, Guruh GMP talablariga javob beruvchi yetkazib beruvchilar bilan ishlaydi va rivojlangan ma'lumotlar bazasiga ega.

Guruh O'zbekiston, Ukraina va Latviyadagi barcha operatsiyalar bo'yicha milliy va xalqaro darajada yuqori ekologik standartlarga muvofiq Investitsiya dasturini amalga oshirishga sodiqligini namoyish etgan. Mavjud kuchli korporativ boshqaruv tizimlarini inobatga olgan holda, loyiha bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy ta'sirlar samarali tarzda yumshatilishi va tegishli ravishda boshqarilishi kutilmoqda.

Ekologik va Ijtimoiy Harakatlar Rejasi (ESAP) ESDD jarayonida aniqlangan takomillashtirish talab etiladigan yo'nalishlarni bartaraf etish va tegishli yumshatish choralari ko'rish maqsadida Mijoz bilan qayta ko'rib chiqilgan va kelishilgan. ESAP, shuningdek, Manfaatdor tomonlar bilan muloqot rejasini va shikoyatlar mexanizmini ishlab chiqish va joriy etishni nazarda tutadi. Kompaniya o'zining ekologik va ijtimoiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni mahalliy darajada oshkor qiladi.

Bank Guruhning ekologik va ijtimoiy faoliyati hamda ESAP ijrosini yillik ekologik va ijtimoiy (E&S) hisobotlar orqali monitoring qiladi.

Texnik ko'mak va grant mablag'lari:

YTTB donorlar tomonidan moliyalashtiriladigan texnik ko'mak doirasida mijozga huquqiy ekspertiza, energiya va raqamli audit hamda inson kapitalini rivojlantirish dasturi bo'yicha ko'mak ko'rsatilmoqda.

Loyiha, shuningdek, Ukraina Investitsiya Doirasi doirasidagi Shahar infratuzilmasi va Sanoat barqarorligi kafolat dasturidan foyda ko'radi.

Kompaniyaning aloqa ma'lumotlari

Svitlana Fadievna

E-mail: svitlana.fadieieva@uf.ua

Tel.: +380 95 282 48 20

Veb-sayt: www.uf.ua

Manzil: 10 M. Amosova ko'chasi, Kiyev shahri, 03038, Ukraina

PSD oxirgi yangilangan sana

2025-yil 10-mart

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havoladan](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#)dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati

nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzda xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlar va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish

va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com electron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.